Abstract: The definition of the concept of green economy, its essence is revealed in the article. It was determined that it is necessary to establish a green economy in order to ensure the sustainable development of society by achieving harmony between nature and human activity.

Key words: Green economy, Green growth, Natural environment, Ecology, Environment, Region, Subregion, Low carbon resources, Green investment, Air atmosphere, Biodiversity, Ecosystem services, Nature value, Low carbon lifestyle, Green technology and technologies, Environmental risk and environmental scarcity, Renewable energy, Green buildings, Water management, Waste management, Land management.

Аннотация: В статье дано определение понятия "зеленая экономика", раскрыта её сущность и содержание. Исследованы вопросы устойчивого развития общества в условиях перехода к зеленой экономике и некоторые аспекты достижения гармонии между природой и деятельностью человека.

Ключевые слова: Зеленая экономика, Зеленый рост, Природная среда, Экология, Окружающая среда, Регион, Субрегион, Низкоуглеродные ресурсы, Зеленые инвестиции, Атмосфера, Биоразнообразие, Экосистемные услуги, Природная ценность, Низкоуглеродный образ жизни, Зеленые технологии. Экологический риск и Дефицит окружающей среды, Возобновляемая энергия, Зеленые здания, Управление водными ресурсами, Управление отходами, Управление земельными ресурсами.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot atamasi 1989-yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, ba'zida Yashil O'sish (Green Growth) atamasi bilan ham birga ishlatiladi. Yashil iqtisodiyot – bu insoniyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni uyg'unlikda bo'lishini qo'llab-quvvatlaydigan va bir vaqtning o'zida har ikkala ehtiyojni birday qondirishga harakat qilish kerakligini o'rgatadigan iqtisodiyotning uslubiyotidir. Ya'ni oddiy qilib aytadigan bo'lsak faqat o'z manfaatimizni, foydamizni, rohatimizni o'ylab hozir biz uchun kerak bo'lgan tabiatdagi mavjud barcha ne'matlarni isrof qilib, masalan daraxtlarni kesavermasligimiz, yerlarni, suvlarni ifloslantirmasdan foydalanishni zarurligini o'rgatadigan fandir. Yashil iqtisodiyot, iqtisodiyot fanlarining bir yo'nalishidir.

Yashil iqtisodiyot nima?

Yashil iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo'lib, uning bir muhim jabhasi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko'plab boshqa sohalaridagi g'oyalarni ham o'z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog'liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi qonuniyatlari, demografik holat, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil tabiatni sof saqlab qolish siyosati bilan bog'liq iqtisodiyotdir.

Yashil iqtisodiyot jamiyat tomonidan shu vaqtga qadar foydalanib kelinayotgan iqtisodiy tizimdan birmuncha farqlanib ma'lum o'ziga hos unsurlarga ega bo'lgan iqtisodiy tizimdir. Uning asosiy maqsadi sayyoramizning tabiiy holatini, ekologiyasini nafaqat qanday bo'lsa shundayligicha saqlab qolish, balki unga keltirilgan zararlar



o'rnini tiklash, uni yanada boyitish, yanada yashillashtirilgan holda kelajak avlodga qoldirish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini barqaror rivojlantirishni ta'minlash orqali aholining tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan ehtiyojlarini toboro to'laroq qondirishga erishishga qaratilgan faoliyat shaklidir.

Demak, yashil iqtisodiyot deganda, bizning fikrimizcha inson hamda yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlar hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan tabiat resurslarini, atrof-muhit va ekologiyani bir butun yaxlit holda nafaqat saqlab qolish, balki uni yanada yashillashtirib, boyitib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, takomillashtirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni yangicha yo'nalishda tizimli tashkil etish tushiniladi.

Buning uchun quyidagi bir qator chora tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

1. Aholining talab va ehtiyojlarini uzluksiz ravishda toboro to'laroq qondirib borishni ta'minlash orqali, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishni, xizmatlar ko'rsatishni barqaror ravishda tabiat, ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko'paytirib borish.
2. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo'ladi, ularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan bino inshootlarni barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish.
3. Atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, tabiatni, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnika va texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirishga erishish.
4. Tabiat resurslarining cheklanganligi sharoitida inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta'minlash maqsadida ne'matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslardan samarali tejab tergap foydalanish yo'li bilan ularni kamayib ketishiga yo'l qo'ymasdan o'rnini tiklab borishni ta'minlagan holda amalga oshirish choralari ko'rish.
5. Aholining doimiy, o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo'ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda chiqindilarsiz ishlash texnologiyalaridan foydalanishga asosiy ahamiyat berish kabilardir.

Yashil iqtisodiyotda tabiat va insonlar iqtisodiy faoliyatining bir-birlari bilan uyg'unligiga erishgan holda tashkil etib jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun harakat qilish lozim bo'ladi. Biror narsani qilaman deb, ikkinchi narsa yo'qotilmaydi. Masalan, uy quraman, deb daraxtlar ayovsiz kesib tashlanmaydi, texnologiyalarni ko'paytirish havo atmosferasini zaharli gazlar bilan to'ldirish evaziga amalga oshirilmaydi va faqat shu yo'l bilangina barqaror taraqqiyotga erishishni taqozo qiladi bu hozirgi kunda global masalalardan biriga aylangan.

Yashil iqtisodiyot past uglerodli, resurslardan tejankor va ijtimoiy maqsad va mafaatlarga mos keladigan iqtisodiyot sifatida tavsiflanadi. Yashil iqtisodiyotda ish bilan bandlik va daromadning o'sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, shuningdek, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo'qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu yashil investitsiyalar maqsadli davlat xarajatlari, siyosat islohotlari, soliqqa tortish va tartibga solishdagi o'zgarishlar orqali faollashtirilishi hamda qo'llab-quvvatlanishini talab qiladi. Shu sababli so'ngi yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit, tabiiy kapitalni muhim iqtisodiy aktiv va ijtimoiy manfaatlar manbai sifatida tushunadigan rivojlanish yo'lini keng targ'ib qilmoqda. Bu borada BMT ayniqsa, hayoti butunlay tabiiy resurslarga bog'liq bo'lib qolgan kambag'al davlatlar fuqarolari uchun alohida yondoshuv kerakligini ta'kidlamoqda. Yashil iqtisodiyot mohiyatiga ko'ra barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi, ayniqsa, Osiyo va Tinch okeani mintaqasida iqtisodiyot, investitsiyalar, kapital va infratuzilma, ish bilan bandlik va ishchilarni malakalarini oshirish yoki boshqa kasblarga o'rgatish hamda ijobiy ijtimoiy va ekologik natijalarga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Yashil iqtisodiyot mamlakatlarni barqaror rivojlanishi, iste'mol va ishlab chiqarish hamda resurslar samaradorligini oshirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Yashil iqtisodiyot barqaror iste'mol va ishlab chiqarish jarayonlari va umuman mahsulotlarning butun hayotiy sikli davomida resurslarni iste'mol qilish, chiqindilarni kamaytirish amaliyotlarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarga muhim e'tibor berishni talab qiladi. Yashil iqtisodiyot jamiyatga qo'shimcha qiymat yaratish uchun resurslardan foydalanish usullarini yangilash orqali va mahsulot yoki xizmat birligi uchun zarur bo'lgan resurslar miqdorini, shuningdek, ishlab chiqariladigan chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan usullarni qo'llash zarurligi insonlarga doimo yodda tutish zarurligini eslatib turadi. Yashil iqtisodiyot investitsiyalar, bandlik va malakalarga asosiy e'tibor qaratgan holda barqaror iqtisodiy o'sish uchun makroiqtisodiy yondashuvni ta'minlaydi.

Yashil iqtisodiyot bo'yicha xar bir davlatda quyidagi uch asosiy yo'nalishda ish olib borilishi zarurdir:

1. Mintaqaviy, submintaqaviy va milliy forumlar, maslaxatlashuvlar orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun makroiqtisodiy yondashuvni targ'ib qilish hamda tizimli ravishda hamkorlikni yo'lga qo'yish.



Yashil iqtisodiyotni rag'batlantirish bo'yicha ko'p tomonlama mintaqaviy va submintaqaviy hamkorlik iste'mol va ishlab chiqarishda barqaror o'zgarishlarni tezlashtirish va mustahkamlash uchun qo'llab-quvvatlanadi. Shu munosabat bilan turli xukumatlar va notijorat tashkilotlar bilan bir qatorda, BMTning Atrof-muhit bo'yicha agentligi resurslar samaradorligi va yashil iqtisodiyotni rag'batlantirishda juda muhim ishtirokchi bo'lgan xususiy sektor bilan ham hamkorlikni kuchaytirib bormoqda. Bular:

- Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga;
 - Mintaqaviy tashabbuslar;
 - "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi xalqaro yashil taraqqiyot koalitsiyasi;
 - Falokatlar va mojarolarga chidamlilikni rivojlantirish;
 - Xitoy-Afrika atrof-muhit bo'yicha hamkorlik markazi;
 - Mamlakatlarga iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda yordam berish;
 - Tabiat qadriyatini iqtisodiyotimizga integratsiya qilish;
 - Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun qashshoqlik-atrof-muhit harakati;
 - Gender tengligi va atrof-muhitni muhofaza qilish;
 - Kimyoviy moddalar va chiqindilarni oqilona boshqarishni targ'ib qilish;
 - Aqlli siyosatlarini xabardor qilish uchun fanni ta'minlash;
 - Toza havoni tiklash;
 - Yaxshi boshqaruvni qo'llab-quvvatlash;
 - Resurs samaradorligini qo'llab-quvvatlash;
 - Osiyo va Tinch Okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi;
 - Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi kam uglerodli turmush tarzi muammosi;
 - Istiqbolli loyihalar.
2. Yashil moliya, texnologiya va investitsiyalardan foydalanishda asosiy e'tiborni Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlariga qaratilayotganligini namoyish qilish:

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirishga va atrof-muhitga zarar keltir-masdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotdir. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega. 2011-yilgi UNEP Yashil iqtisodiyot hisobotida "yashil bo'lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasi-dagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi. Resurslardan tejamkor va ijtimoiy manfaatlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi kerakligiga alohida e'tibor beriladi..

Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat – bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash (qarang: "Ekotizimlar va bioxilma-xillik iqtisodiyoti" va "Tabiiy kapitallar banki") va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to'liq xarajatlarni hisobga olish rejimi. Aktivga zarar yetkazuvchi yoki e'tiborsiz qoldiruvchi tashkilotning majburiyatlari sifatida ishonchli tarzda kuzatilishini ham hisobga olinadi.

Yashil stiker va ekologik belgi amaliyoti iste'molchilar oldida atrof-muhitga oqilona munosabat va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida paydo bo'ldi. Ko'pgina sohalar globallashtirayotgan iqtisodiyotda yashillashtirish amaliyotini targ'ib qilish usuli sifatida ushbu standartlarni qabul qila boshladi. Barqarorlik standartlari sifatida ham tanilgan ushbu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaradigan odamlarga zarar bermasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalaridir. Ushbu standartlar so'ngi yillarda paydo bo'lib tez o'sib bordi va hozirda ular yangi, yashil iqtisodiyotni qurishda yordam berishi mumkin. Ular o'rmon xo'jaligi, dehqonchilik, tog'-kon sanoati yoki baliqchilik kabi iqtisodiy sohalarga e'tibor qaratadi; suv manbalari va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish yoki issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish kabi ekologik omillarga e'tiborni qaratish; xodimlarning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini qo'llab-quvvatlash; va ishlab chiqarish jarayonlarining muayyan qismlariga uyg'unlik bahsh etish,

3. Yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va asosiy kiritish nuqtayi nazaridan mamlakatlarni qo'llab-quvvatlash. Masalan, yashil iqtisodiyot dasturlariga jadal "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit Mo'g'ulistonni Yashil rivojlanish milliy siyosatini amalga oshirishda, yashil iqtisodiyotni mahalliy darajadagi rivojlanish rejalariga, Barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlariga integratsiyalashuvida va asosiy tarmoqlarni yashillashtirishda qo'llab-quvvatlamoda.

Yashil iqtisodiyotga turli qarashlar, ta'rif va tavsiflar

Yashil iqtisodiyot ham shu vaqtgacha o'rganib kelinayotgan iqtisod nazariyasi sifatida turli iqtisodchilar tomonidan katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganib kelinmoqda hamda ta'riflanmoqda. Iqtisodchilarning ko'pchiligi fikriga ko'ra iqtisodiyot hozirgi mavjud ekotizimning tarkibiy qismi sifatida qoraladi. Jumladan, Lin Margulis fikriga ko'ra mavzuga yaxlit yondashuv tipik bo'lib, iqtisodiy g'oyalar ma'lum bir nazariyotchiga bog'liq holda har qanday boshqa mavzular bilan aralashib ketadi. Feminizm, postmodernizm, ekologik harakat, tinchlik harakati,



yashil siyosat, yashil anarxizm va globallashtirishga qarshi harakat tarafdorlari bu atamani asosiy iqtisodiyotdan tashqarida bo'lgan juda boshqacha g'oyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan.

Bu atamaning ishlatilishi rasmiy ravishda tashkil etilgan va bosh harflar bilan yozilgan Yashil atamani noyob va ajralib turuvchi belgi sifatida da'vo qiladigan Yashil partiyalarning siyosiy farqi bilan yanada noaniqlashadi. Shunday qilib, odatda yashil iqtisodiyotga o'tish, biomikrologiya va bioxilma-xillikni to'liqroq hisobga olish tarafdori bo'lgan "yashil iqtisodchilar" maktabiga murojaat qilish ma'qul.

Ba'zi iqtisodchilar yashil iqtisodiyotni ko'proq tashkil etilgan maktablarning filiali yoki kichik sohasi sifatida ko'rishadi. Masalan, an'anaviy yer tabiiy kapitalga umumlashtirilgan va mehnat va moddiy kapital bilan ba'zi umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan klassik iqtisod sifatida qarashadi. Yoki u Marksistik iqtisodiyot nazariyasida o'rganilgan, tabiatning bir qismi sifatida, qo'shimcha qiymat yaratib beradigan ishchilarning ekspluatatsiya qilinishiga imkon yaratib beradigan bazasi, yoki neoklassik iqtisodiyotning bir tarmog'i sifatida qaraladi va hokazo.

UNEP va Buyuk Britaniya kabi milliy hukumatlar tomonidan tabiiy kapital g'oyalari va "yashil iqtisodiyot" shiori ostida to'liq xarajatlarni hisobga olish g'oyalariga tobora ortib borayotgan majburiyat maktablar o'rtasidagi tafovutlarni yo'qotishi va ularning barchasini "yashil iqtisodiyot" ning o'zgarishlari sifatida qayta belgilashi mumkin. 2010-yildan boshlab Bretton-Vuds institutlari xususan, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ("Yashil jamg'arma" tashabbusi orqali) global pul-kredit siyosati uchun mas'ul bo'lganlar biologik xilma-xillikni baholash va yanada rasmiy va universal biologik xilma-xillikka o'tish niyatini bildirishdi. Bularni emissiya va chiqindilarni kam bo'lmagan, lekin tubdan nolga tenglashtirishni hisobga olgan holda, nol emissiya bo'yicha tadqiqotlar va tashabbuslar ilgari surildi. UNEP 2011-yilgi Yashil iqtisodiyot hisobotida "mavjud tadqiqotlarga asoslanib, global iqtisodiyotni ko'kalamzorlashtirish uchun yillik moliyalashtirish talabi 1,05 dan 2,59 trillion AQSh dollari oralig'ida bo'lishi taxmin qilingan. Bu talabni istiqbolga qaratish uchun global yalpi kapital shakllanishi bo'yicha o'lchanadigan yiliga jami global investitsiyalar hajmining o'ndan bir qismini tashkil etadi.

COP26da Yevropa investitsiya banki ko'p tomonlama rivojlanish banklari bilan kelishilgan, Parij kelishuviga mos keladigan adolatli o'tishning umumiy tamoyillari to'plamini e'lon qildi. To'plamda bayon etilgan tamoyillar, uzoq muddatli iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan siyosatni jalb qilish va ochiqlik shaffoflik va gender tengligi bo'yicha rejalar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlarni yodda tutgan holda sof nol uglerodli iqtisodiyotga o'tishga moliyalashtirishga qaratadi.

Afrika taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa Kengashi taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiya banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yangi taraqqiyot banki va Amerikalalararo taraqqiyot banki ko'p tomonlama rivojlanish banklari qatoriga kiradi. iqlim o'zgarishini yumshatish va adolatli o'tish tamoyillarini qo'llab-quvvatlashga. Jahon banki guruhi ham hissa qo'shdi.

Yana bir iqtisodchi olim Karl Burkart yashil iqtisodiyotni oltita asosiy sektorga asoslangan deb ta'riflagan:

- Qayta tiklanadigan energiya;
- Yashil binolar;
- Barqaror transport;
- Suvni boshqarish;
- Chiqindilarni boshqarish;
- Yerni boshqarish;
- Barqarorlikning uchta ustuni.

Global biznesni ifodalovchi Xalqaro Savdo Palatasi (XSP) yashil iqtisodiyotni "iqtisodiy o'sish va ekologik mas'uliyat ijtimoiy rivojlanishdagi taraqqiyotni qo'llab-quvvatlagan holda o'zaro mustahkamlovchi rejimda birgalikda ishlaydigan iqtisodiyot" deb ta'riflaydi.

2012-yilda XSP har ikki yilda bir marta konsultatsiya qilinadigan xalqaro ekspertlarning hissalarini o'z ichiga olgan Yashil iqtisodiyot yo'l xaritasini nashr etdi. "Yo'l xaritasi" va "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini aniqlashtirish va shakllantirish bo'yicha keng qamrovli va ko'p tarmoqli sa'y-harakatlarni ifodalaydi. U global muammolarga yechim topishda biznesning rolini ta'kidlaydi. U yashil iqtisodiyotga o'tish uchun biznes-tarmoq ichidagi va hamkorlikdagi harakatlarga taalluqli quyidagi 11 ta shartni belgilaydi:

- Ochiq va raqobatbardosh bozorlar;
- Ko'rsatkichlar, buxgalteriya hisobi va hisobot;
- Moliya va investitsiyalar;
- Ogohlik;
- Hayotiy sikl yondashuvi;
- Resurs samaradorligi va ajratish;
- Bandlik;
- Ta'lim va ko'nikmalar;
- Boshqaruv va hamkorlik;
- Integratsiyalashgan siyosat va qarorlar qabul qilish;
- Moliya va investitsiya.



Ekologik investitsiya yoki yashil investitsiya ijtimoiy mas'uliyatli investitsiya shakli bo'lib, unda investitsiyalar ekologik toza mahsulotlar va amaliyotlarni qo'llab-quvvatlovchi yoki ta'minlovchi kompaniyalarga kiritiladi. Bu kompaniyalar uglerodga qaramlikdan barqarorroq muqobillarga o'tishni qo'llab-quvvatlaydigan yangi texnologiyalarni rag'batlantiradi. Samarali ekologik natijani ta'minlash uchun yaratilgan har qanday moliyaviy faoliyat, yashil moliya hisoblanadi.

Yashil kompaniyalarga xususiy investitsiyalarni kuzatish uchun Ethical Markets Media va The Climate Prosperity Alliance tomonidan ochilgan Global iqlim farovonligi reytingi 2007-yildan buyon quyosh, shamol, geotermal, okean/gidro va boshqa yashil sektorlarga 1,248 trillion dollardan ortiq sarmoya kiritilganini taxmin qildi. Bu raqam Shimoliy Amerika, Xitoy, Hindiston va Braziliya hamda boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsiyalarni ifodalaydi.

Yashil iqtisodiyotni o'rganayotgan maktablar orasida Yashil o'sish – atamasi ostida tadqiq qilayotganlar ham mavjud bo'lib ular bu ekologik barqaror iqtisodiy o'sishning faraziy yo'lini tavsiflovchi atamadir deb ta'kidlaydilar. U iqtisodiy o'sish ustuvor maqsad bo'lib qolaverar ekan, iqtisodiy o'sishni resurslardan foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirlardan ajratish zarurligini tushunishga asoslanadi. Shunday qilib, yashil o'sish yashil iqtisodiyot va past uglerodli yoki barqaror rivojlanish tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Yashil rivojlanishning asosiy omili barqaror energiya tizimlariga o'tishdir. Yashil o'sish siyosati tarafdorlarining ta'kidlashicha, yaxshi amalga oshirilgan yashil siyosat qayta tiklanadigan energiya, yashil qishloq xo'jaligi yoki barqaror o'rmon xo'jaligi kabi sohalarida bandlik uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi bir qancha davlatlar va xalqaro tashkilotlar va boshqalar ham yashil o'sish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqqanlar; masalan, Global Yashil o'sish instituti (GYaO'I) bu masalaga alohida mahsus bag'ishlangan ishlarida Yashil o'sish atamasi milliy yoki xalqaro strategiyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan, masalan, COVID-19 retsessiyasidan iqtisodiy tiklanishning bir qismi sifatida, ko'pincha yashil tiklanish sifatida ifodalaydilar.

Yashil o'sish tanqidchilari yashil o'sish yondashuvlari iqlim inqirozi, biologik xilma-xillik inqirozi va boshqa atrof-muhit degradatsiyasini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan asosiy iqtisodiy tizimlar o'zgarishini to'liq hisobga olmasligini ta'kidlaydi. Tanqidchilar buning o'rniqa iqtisodiy o'zgarishlar uchun muqobil asoslarga ishora qiladilar, masalan, aylanma iqtisodiyot, o'sish, donut iqtisodiyoti yoki sayyora chegaralarini yaxshiroq hisoblaydigan va shunga o'xshash fundamental o'zgarishlarga olib keladigan iqtisodiyot deb qaraydilar.

Ishlab chiqarish va iqtisodiy taraqqiyotni o'lchash iqtisodiy indeks ko'rsatkichlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Yashil indekslar iqtisodiy taraqqiyotga erishishda insonning ekologik ta'sirini, transport, energetika, binolar va turizm kabi samaradorlik tarmoqlarini, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya va toza texnologiyalar innovatsiyasi kabi sohalariga yo'naltirilgan investitsion oqimlarni o'lchash zaruratidan kelib chiqqan. Zero, Ona yerimiz ya'ni umumiy uyimiz! toboro og'ir ahvolga tushib bormoqda. Uni birgalikda asrash har bir insonni xar bir mamlakatning muqaddas burchidir! Vaholangki insoniyat hayotining asosi bo'lgan, havodagi kislorodni ishlab chiqarib beradigan, tirik mavjudodlarning o'pkasi degan nom olgan, o'rmonlar hamda ular uchun asosiy ozuquni yetishtirib beruvchi yer resurslarining sayyoramiz hududlari bo'yicha joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

1-jadval: Dunyo mamlakatlaridagi o'rmon resurslari va ekilib ozuqular yetishtiriladigan yerlar (aholi jon boshiga)

№	Mamlakatlar nomi	O'rmon	Mamlakatlar	Ekiladigan
1	Gabon	36,0	Avstraliya	2,5
2	Kanada	15,8	Qozog'iston	1,9
3	Rossiya	5,5	Kanada	1,5
4	Finlyandiya	5,0	Rossiya	0,9
5	Braziliya	2,5	Argentina	0,9
6	AQSh	0,9	AQSh	0,6
7	Xitoy	0,1	Xindiston	0,17
8	Xindiston	0,08	Germaniya	0,1
9	Germaniya	0,06	Xitoy	0,07

Manba: A. O'lmasov Iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. 208 bet.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki bu iqtisodiyotning rivojlanishi uchun o'ta zarur bo'lgan, aslida cheklangan o'rmon va yer resurslar ham dunyo turli mamlakatlari bo'yicha notekis joylashganligi sababli ayrim davlatlar jalqlari uchun muhim hayotiy masalaga aylanib qolgan. Yaxshiyamki, insoniyat XXI asrga kelib g'oyat murakkab muammolar qarshisida turganligini tushunib yetdi. Jahon miqyosida yuz bergan va berayotgan jarayonlar tahlili



shuni ko'rsatdiki, iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, cho'llanish va yerning degradatsiyasi, bioxilma-xilliklarning qisqarishi, ichimlik suvining ifloslanishi va yetishmasligi, o'rmon va tuproq inqirozi insoniyat uchun nihoyatda dolzarb global ekologik muammolardan biri bo'lib qoldi.

2-jadval: Dunyo mamlakatlarida chuchuk suv zaxiralarining aholi jon boshiga eng ko'p va eng oz mamlakatlar

№	Mamlakatlar	Kub.m
1	Braziliya	8233
2	Rossiya	4508
3	AQSh	3069
4	Kanada	2902
5	Xitoy	2840
6	Mal'ta	0,05
7	Maldiv	0,03
8	Bagam orollari	0,02
9	Quvayt	0,02
10	Sent Kits va Nevis	0,02

Manba: A O'lmasov Iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. 208 bet.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki dunyo mamlakatlarida chuchuk suv zahiralarining joylashuvida ham qatta nomuofiqliklar mavjud.

Aholi sonining oshib borishi, sanoat va transportning rivojlanishi, fan-texnikaning taraqqiy etishi, ishlab chiqarishning ayrim tamoqlarida suvdan keng foydalanilishi natijasida insonning biosferaga ko'rsatayotgan ta'sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida u yoki bu ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda mutanosiblik insoniyat tabiatdan foydalanishda tabiat qonunlariga emas, aksincha, shaxsiy manfaatlariga asoslanib faoliyat ko'rsatishi oqibatida tabiatdagi muvozanatning sezilarli darajada buzilgani, ya'ni dunyoning turli burchaklarida tabiiy ofatlar: suv toshqinlari, zilzilalar, o'rmon yong'inlari xavoning ifloslanishi va boshqa shu kabi talofatlarning ro'y berayotgani hech kimga sir emas. Inson tabiiy muhitga ta'sir etar ekan, uning o'zi ham "aks ta'sir"ga duch kelmoqda. Bularning barchasi endilikda insonning o'ziga va uning sog'lom tabiiy muhitda yashashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tabiat boyliklaridan ekologik omillar hisobga olinmagan holda foydalanish tufayli atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat va maishiy chiqindilarning hajmi keskin ortib borayotgani insonning tabiatga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini kuchaytirmoqda.

Iqlim geografiyasi o'zgarmoqda. So'nggi 15 yil davomida o'rtacha harorat eng yuqori ko'rsatkichga yetdi. Iqlimiy o'zgarishlarning ta'siri qutblarda ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda. Okean va dengizlarda suvning isishi jarayoni tezlashib bormoqda. Yer shari qutb qopqog'ining qalinligi so'nggi 40 yilda 40 % ga kamaygan. O'rtacha harorat oshib borishi natijasida ichimlik suvi zaxiralarining 20 % ini tashkil etadigan Grenlandiya muzliklari erisa suv sathi 7 metrga ko'tariladi. Harorat oshishi sababli XX asrning o'zidayoq suv sathi 20 cm ga ko'tarilgan.

Nixoyat, tabiatda sodir bo'layotgan bu global o'zgarishlarni anglab yetib uni oldining olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1972-yil 5-iyunda Stokgolm shahrida atrof muhitni muhofazasiga bag'ishlangan Butunjahon konferensiyasini o'tkazib shu kunni xar yili "Butun jaxon atrof muhit kuni" deb e'lon qilib uni nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu munosabat bilan har yili 5-iyun – Butun jahon atrof muhit kuni sifatida dunyo xalqlari tomonidan nishonlanib kelinmoqda.

Mazkur qarordan ko'zlangan maqsad xalqaro hamjamiyat e'tiborini atrof muhitni muhofaza qilish muammolariga hamda global ekologik inqirozning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga qaratildi. Shundan buyon dunyoning qator mamlakatlarida 5-iyun – Butunjahon atrof muhit kuniga bag'ishlab turli xil tadbirlar, jumladan, "yashil" konsertlar, ko'rik-tanlovlar, bog'lar yaratish, shuningdek, atrof-muhitni tozalashga qaratilgan turli ekologik aksiyalar o'tkazilib kelinmoqda. O'zbekiston ham bu umumjahon tadbirlarida xar yili faol qatnashib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi 2018-yilda Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qildi va uni amalga oshirish yuzasidan milliy miqyosda aniq belgilanadigan hissa bo'yicha–2030-yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish miqdoriy majburiyatini qabul qildi.



Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish bo'yicha o'rta muddatli ustuvor vazifalar mamlakatda iqtisodiyotning energiya va resurs sarfi hajmini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, Orolbo'yida ekologik tanglik oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutadigan qator strategik va tarmoq rejalari, dasturlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda.

XULOSA

Maqolada mavzu bo'yicha mavjud bo'lgan katta miqyosdagi e'lon qilingan ilmiy nazariy va amaliy ma'lumotlarni tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va takliflar shakllantirildi:

1. Yashil iqtisodiyot butun dunyo mamlakatlarining istiqbolda barqaror iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishining asosiy drayveri sifatida qaralmoqda va uni harakatga keltiruvchi kuch "yashil" texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalar ekanligini tan olinmoqda va unga jiddiy e'tibor berilmoqda.
2. Global darajada yashil iqtisodiyotga o'tish katta miqdordagi moliyaviy mablag'larni talab etadi. Xalqaro energetika agentligining 2050-yilgacha CO₂ emissiyasini ikki baravarga kamaytirish bo'yicha turli stsensariylari shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu maqsadga erishish uchun "yashil iqtisodiyot"ga qo'shimcha investitsiyalar miqdori dunyo YalMning 1–2,5 % darajasida bo'lishi talab etiladi. Ahamiyatlisi shundaki, mazkur investitsiyalarning katta qismi qurilish va transport sohasini "yashillashtirish" uchun yo'naltirilishi kerak bo'ladi.
3. Moliyaviy, bank va sug'urta investitsiyalari "yashil iqtisodiyot"ga kiritilayotgan xususiy investitsiyalarning bosh manbasiga aylantirilishi juda zarurdir.
4. Yashil iqtisodiyotga o'tish tabiat va insonlar iqtisodiy faoliyatining bir-birlari bilan uyg'unligiga erishgan holda tashkil etilib jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun harakat qilish lozim bo'ladi.
5. Yashil iqtisodiyotning mazmun mohiyatini keng xalq ommasiga yetkazish mamlakatimiz ta'lim tizimi faoliyatining muhim vazifalaridan biriga aylanishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. O'lmasov. Iqtisodiyot. – Toshkent. Iqtisod- Moliya. 2017-yil, 208 bet.
2. "Ekotizimlar va biologik xilma-xillik iqtisodiyoti", "Tabiiy kapital banki". – T., 2019.
3. Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi xalqaro yashil taraqqiyot koalitsiyasi. – Toshkent, 2022.
4. Глобальный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЕП, 2009 www.unep.org/greeneconomy/portals/30/docs/GGNDpolicy-brief_Russian.pdf
5. Lyaskovskaya Ye.A. [Working forces quality problems at realizing modern development concepts]. Vestnik Bashkirskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta [Vestnik Bashkir State Agrarian University], 2017, no. 4 (44), pp. 137- 145. (in Russ.)
6. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/11/16/cop27>.
7. Bloomberg NEF and United Nations Environment Programme (UNEP), REN21. Renewables 2020 Global status report. Paris-2020. P. 166.
8. https://yumh.uz/images/news/eco_uz.pdf
9. Rajabov N. Zonal policy concept: prospects for effective investment climate management //Ekonomika i obrazovanie. – 2022. – T. 23. – №. Maxsus son. – S. 212-219.
10. Adilova M.T. Green economy: Essence, principles and prospects// International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 451 – 453. www.allresearchjournal.com
11. Isadjanov A.A. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ekologik jihatlari. Monografiya. TDIU. Ilmiy tadqiqot markazi. 2020. 137-138 b.
12. Pakhomova N.V., Rikhter K.K., Malyshkov G.B. Inclusive sustainable development: priorities, indices, international experience, potential of coordination with reindustrialization model. Problemy sovremennoy ekonomiki [Problems of modern economics], 2014, no. 3(51), pp. 15-24. (in Russ.)

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.